



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2021 y. "23" noyabr

№ 44

Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9- moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasi sohasini xalqaro amaliyot va tajribalar asosida yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **QAROR QILADI:**

1. Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

2. Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 28- iyundagi "Eksport (yetkazib berilgan) va import (olib kirilgan) tovarlar narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 32-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qaror 2022- yil 1- yanvardan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
2021 yil 23 noyabrdagi
47-son qaroriga ilova

Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda - Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlarning eksport va import narxlari indeksini (EINI) hisoblash amaliyotini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan, respublikada sanoat faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan "Eksport va import narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: nazariya va amaliyot" (XMT va boshqa tashkilotlar) tavsiyalaridan foydalanilgan.

Ushbu Uslubiy nizom tashqi savdo narxlari indekslarini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish maqsadida Davlat statistika qo'mitasi tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Tovarlarning eksport va import narxlari indekslarini hisoblash uchun tanlanmani shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 dekabrdagi PF-3448-sonli "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining 2017 yilgi versiyasini joriy etish to'g'risida"gi qarori asosida Tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan yangi tizimi negizida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasidan (O'z.R TIF TN) foydalaniladi.

2. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha TIF TN ning o'nta raqamli kodi quyidagicha shakllantiriladi:

birinchi oltita raqam uyg'unlashgan tizimdagi tovarlarni tavsiflash va kodlash;

xuddi shunday oltita raqam va qo'shimcha yettinchi va sakkizinchi belgilar Yevropa Ittifoqining Kombinatsiyalangan Nomenklaturasi bo'yicha tovarlarni tavsiflash va kodlashga mos keladi;

to'qqizinchi belgi MDHning qiziqishidan kelib chiqib, tovarlarga batafsil ma'lumot berish uchun mo'ljallangan;

o‘ninchi belgi O‘zbekiston Respublikasining qiziqishidan kelib chiqib, tovarlarga batafsil ma’lumot berish uchun mo‘ljallangan.

3. Ushbu qo‘llanma uchun quyidagi asosiy atamalar va ularning ta’riflari qo‘llaniladi:

eksport tovarlar-O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan qayta olib kirish majburiyatisiz chiqarilgan tovar (qonunchilikda boshqacha tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa);

import tovarlar- O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga qayta chiqarib yuborish majburiyatisiz olib kirilgan tovar;

tovarlarning statistik qiymati- shartnoma valyutalaridan qat’iy nazar yagona asosga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymatining summasi;

tayanch obyekt (tashkilot) - tovarlarning eksport va import narxlari indeksini shakllantirish uchun vakillik asosida tanlab olingan tashkilot;

tayanch davr - salmoq vaznlar tizimini shakllantirish uchun eksport va import tovarlar hajmlaridan foydalanilgan yil;

tayanch yil dekabriga nisbatan narxlar indeksi – joriy davr narxlarining taqqoslash bazasi sifatida hisoblangan davr narxlariga nisbati (tayanch yilning dekabri), ya’ni doimiy taqqoslash uchun ma’lum bir yilning dekabr oyi narxlariga nisbatan hisoblangan narx indeksi.

tovar turlarining salmoq vazni (tovar guruhleri) – tayanch yil uchun aniq tovar holati (tovar guruhleri)dagi eksport va import tovarlarning eksport va importdagi umumiy hajm ulushi. Bu har bir elementning umumiy majmuadagi muhimlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkich;

tortish – umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarni olish va to‘g‘ridan – to‘g‘ri to‘ldirilmaydigan turli xil mahsulotlarning mosligini ta’minlash uchun indeks hisob-kitoblarida qo‘llaniladigan tartib;

agregatsiyalash (jamlash) – past darajadagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni keyingi darajalardagi katta agregatlarga birlashtirib olish;

tanlov – statistik ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashda foydalaniladigan tasdiqlangan tasniflagichlar, nomenklaturalar va ma’lumotlarning alohida turlari;

narxning individual indeksi- aniq turdagi tovar holati o‘zgarish darajasini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkich;

narxlarning jamlangan (umumiy) indeksi- alohida kichik guruhlar, guruhlar yoki o‘rganilayotgan jarayonlar bo‘yicha umumiy hisobda narxlar o‘zgarishi darajasini tavsiflovchi va individual narx indeksleri asosida shakllanuvchi nisbiy ko‘rsatkich;

Ushbu uslubiy nizomda qo‘llanilgan atamalar davlat statistika organlari tomonidan statistik maqsadlar uchun ishlatiladi.

2-bob. Eksport va import narxlari indeksi shakllanishining asosiy bosqichlari

4. Tashqi savdo narxlari indeksini hisoblash quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

tovar pozitsialarini (tovar guruhlarini) va tayanch obyektlarni tanlash;

narx indeksini hisoblashda narx ma'lumotlarini shakllantirish;

turli darajadagi agregatlarning narx indekslarini hisoblash uchun o'lchash (vazn) tizimini yaratish;

formula tanlash va narx indeksini hisoblash.

1-§. Tovar pozitsialari (tovar guruhlari) va tayanch obyektlarini tanlash.

5. Tovarlar turlari (tovar guruhlari) tanlanmasi uchun bojxona statistika ma'lumotlari bosh to'plam hisoblanadi.

6. Tovar turlari (tovar guruhlari) tanlovida faqatgina statistik qiymati nolga teng bo'lmagan qaydlar ro'yxatga olinadi.

7. Shu bilan birga, tanlanmaga eksport va import hajmida sezilarli ulushni egallagan tovar turlari (tovar guruhlari) kiritiladi.

8. Tovar turlari (tovar guruhlari) tanlovini shakllantirishda inflyatsiyaning (assortiment o'zgarishi, tizimli o'zgarishlar va hokazo) noan'anaviy omillari bilan bog'liq tayanch yildagi narxlarning muntazam tebranishlari hisobga olinmaydi.

9. Tanlov 93- kodli "Qurol va o'q-dorilar", uning qismlari hamda 99- kodli "Xizmatlar" guruhlarini o'z ichiga olmaydi.

10. Tayanch obyektlar tanlovi tayanch yil davomida muntazam ravishda faoliyat olib borgan, tovarlarni yetkazib berishda sezilarli hajmga ega bo'lgan, mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish yoki mamalakat hududiga olib kiruvchi yuridik shaxslar ro'yxatidan tanlab olinadi.

11. Tayanch yil choraklarida kamida ikki marotaba tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirgan eksportchi va importchilarni tanlanmaga kiritish afzal hisoblanadi.

12. Tovarlar va ularning tavsiflari tez-tez o'zgarib turadigan hamda mahsulot xilma-xilligi bilan tavsiflanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar namunadagi to'plamga kiritilmaydi.

13. Tanlangan tayanch obyektlar aniq umummilliy statistik kuzatuvlar, asosiy mahsulotlar guruhlarini maksimal darajada qoplagandan keyingina maqbul tanlovga erishiladi.

14. Har yili tayanch obyektlar, tovarlar, mahsulotlar tanlanmasi yangilanadi. Yangilanish respublika tashqi savdo aylanmasining hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Talab kamayganligi sababli bozorda ahamiyatini yo'qotgan tovarlar, mahsulotlar tanlovdan chiqariladi. Ularni yangi tovarlar, mahsulotlar bilan almashtirish uchun huddi shu mezonlarga javob beradigan mahsulotlar qo'shiladi. Asosiy obyektlar ro'yxatiga tashqi savdo aylanmasining eng yuqori qiymatiga ega bo'lgan yangi yuridik shaxslar kiradi.

2-§. Narxlar indeksini hisoblash uchun narx ma'lumotlarni shakllantirish

15. Tovarlarning eksport va import narxlari indeksini hisoblashda bojxona statistikasi ma'lumotlari axborot manbai hisoblanadi.

16. Eksport va import qilinadigan mahsulotlarning narxi va miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish mavjud ma'lumotlar bazasiga asoslangan holda bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi.

17. Bojxona statistikasi ma'lumotlar bazasi eksport va import qilinadigan mahsulotlarning qiymati va miqdori to'g'risidagi yil boshidan yig'ib boriladigan (yil boshidan boshlab to'plangan) ma'lumotlardan iboratligi sababli, dastlab joriy oy uchun tovarlarning qiymati va miqdori aniqlanadi.

18. Eksport va import qilinadigan mahsulotlarning oylik qiymatini hisoblash formulasi quyidagicha:

$$ST_{i,t} = ST'_{i,t} - ST'_{i,t-1},$$

bunda

$ST_{i,t}$ joriy t oydagi i tovar qiymati;

$ST'_{i,t}$ yil boshidan joriy t oydagi i tovar qiymati;

$ST'_{i,t-1}$ yil boshidan avvalgi $t-1$ oyning i - tovar qiymati;

19. Eksport va import qilinadigan mahsulotlarning oylik sonini hisoblash formulasi:

$$Q_{i,t} = Q'_{i,t} - Q'_{i,t-1},$$

bunda

$Q_{i,t}$ joriy t oydagi i tovar soni;

$Q'_{i,t}$ yil boshidan joriy t oydagi i tovar soni;

$Q'_{i,t-1}$ yil boshidan avvalgi $t-1$ oyning i tovar soni;

20. Joriy oy uchun tovarlarning o'rtacha narxlarini hisoblash formulasi:

$$\overline{P}_{i,t} = \frac{ST_{i,t}}{Q_{i,t}},$$

bunda

$\overline{P}_{i,t}$ joriy t oydagi i tovarning o'rtacha narxi;

$ST_{i,t}$ joriy t oydagi i tovar qiymati;

$Q_{i,t}$ joriy t oydagi i tovar soni.

21. Narxlar indeksini shakllantirishda ularning vaqt qatorlari uzluksizligini ta'minlash va narxlarning har qanday mavjud bo'lmashlik holatlariga yo'l qo'ymaslik lozim.

22. Eksport va import mahsulotlari ma'lumotlari vaqtinchalik mavjud bo'lmagan hollarda shartli ravishda narxlarni hisoblash amalga oshiriladi. Bu hisoblash haqiqiy ma'lumotlar olinguniga qadar davom ettiriladi.

23. Shartli qiymatlarni aniqlashning bir necha usullari mavjud: o'tgan davrda hisoblangan narxlardan foydalanish (oxirgi qayd etilgan narxni qaytarish) va qayta hisoblangan shartli narxlarni qo'llash.

24. O'tgan davrda hisoblangan narxlardan foydalanish usuli faqatgina bir-ikki oy davomida nisbatan barqaror narx dinamikasi kuzatilgan hollarda qo'llaniladi.

25. O'zgaruvchan narx dinamikasi va tanlangan tovar turlari bo'yicha uzoq muddat davomida eksport yoki import amalga oshirilmagan hollarda narxlarni shartli qayta hisoblash usulidan foydalaniladi. Bunda vaqt qatorlarining uzluksizligi shartli narxlarni hisoblash va narxlarning nisbiy o'zgarishlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi:

boshqa tayanch obyektning o'xshash tovar turlari narxlarining o'zgarishlaridan;

eksport yoki import bilan shug'illanadigan, kuzatuv uchun tanlangan barcha tayanch obyektlar bo'yicha mavjud bo'lmagan tovarga uxshash tovarlarning o'rtacha narxlari o'zgarishidan;

umumiy eksport yoki import narxlari o'zgarishidan.

26. Shartli narxlarni hisoblash joriy holatni tahlil qilish va maqsadga muvofiqligini baholashdan so'ng amalga oshiriladi (boshqa tayanch obyektlarida tovar turlarining mavjudligi, o'tgan davrda narxlar qay tarzda o'zgarganligi, jahon bozorlaridagi narxlarning o'zgarish jarayonlari va hokazo).

27. Tayanch obyekt tomonidan tanlab olingan tovar turlarining eksporti yoki importi to'liq to'xtaligan hollarda, obyektlarning bosh to'plamida shartnomlarni amalga oshirish bo'yicha o'xshash shartlarga ega korxonalar mavjud bo'lgan holdagina tayanch obyektlar tanlanmasiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

3-§. Turli darajadagi agregatlarning qiymatini hisoblash uchun tortish tizimini shakllantirish

28. Narxlar indeksini hisoblash uchun salmoq vazn shakllantirishda tayanch davrdagi eksport va import mahsulotlarining qiymati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

29. Aniq turdagi tovar, guruh, kichik tovar guruhlari bo'yicha salmoq vaznlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W_i = \frac{d_i}{\sum_{i=1}^n d_i}, \quad W_j = \frac{d_j}{\sum_{j=1}^n d_j},$$

bunda

- W_i i tovarning salmoq vazni;
- W_j j guruh yoki kichik guruhlar bo'yicha salmoq vazn;
- d_i tayanch davrdagi eksport yoki import i - tovar qiymatining hajmi;
- d_j tayanch davrdagi eksport yoki import j - tovar guruhidagi tovar qiymatining hajmi;
- n tovar pozitsiyalari (tovar guruhlari) soni.

30. Tovarlarning eksport va import narxlari indeksini shakllantirishda foydalaniladigan salmoq vaznlar tizimini qayta ko'rib chiqish, har yili amalga oshiriladi.

4-§. Formula tanlovi va narx indekslarini hisoblash

31. Tanlanma to'plam elementlarining qamrab olinishi darajasiga qarab tovarlarning eksport va import narxlari individual va yig'ma indekslarini hisoblash amalga oshiriladi.

32. Dastlabki ma'lumotlar asosida individual narx indekslari quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$STR_{i(t)} = \frac{P_{i(t)}}{P_{i(t-1)}},$$

bunda

$STR_{i(t)}$ hisobot (t) oyidagi (i) tovar turining qisqa davrli narx indeksini o'tgan oyga ($t-1$) nisbati;

$P_{i(t)}$ tovar (i) turining joriy (t) oyidagi narxi;

$P_{i(t-1)}$ tovar (i) turining o'tgan ($t-1$) oyidagi narxi.

33. Yig'ma narx indekslarini hisoblashda tayanch davrning salmoq vaznlari tizimidan foydalanilgan holda modifikatsiyalangan **Laspeyres** formulasi asosida amalga oshiriladi.

34. Hisob-kitoblar quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

$$1. LTR_{i,t} = \prod_{n=1}^t STR_{i,n},$$

$$2. V_{i,t} = W_{i,t} \times \prod_{n=1}^t STR_{i,n},$$

$$3. LTR_{j,t} = \frac{\sum_{i=1}^g V_{i,t}}{\sum_{i=1}^g W_i} = \frac{V_{j,t}}{W_j},$$

$$4. STR_{j,t} = \frac{LTR_{j,t}}{LTR_{j,t-1}},$$

bunda

$LTR_{i,t}$ i - tovar bo'yicha tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan joriy t oyidagi uzoq muddatli narx indeksi;

$STR_{i,t}$ i - tovar bo'yicha hisobot t oyining o'tgan $t-1$ oyiga nisbatan qisqa muddatli narx indeksi;

$STR_{j,t}$ joriy i - oyning o'tgan $t-1$ oyga nisbatan j tovar guruh (kichik guruh)larining qisqa muddatli narx indeksi;

$LTR_{j,t}$ tayanch yil dekabridagi j xizmat guruhi (kichik guruhi)ning joriy t oyidagi uzoq muddatli narxlari indeksi;

$V_{i,t}$ t joriy oyidagi i - tovarning salmoq vazni;

$V_{j,t}$ j tovar guruh (kichik guruh)larning joriy t oyidagi tovarning salmoq vazni;

W_i i - tovarning salmoq vazni;

- W_j j tovar guruh (kichik guruh)lar bo'yicha salmoq vazn;
- n oy raqami (1-yanvar, 2-fevral va h.k.);
- g guruh(kichik guruh)lar tarkibiga kiruvchi turlar soni.

35. **Har oyda** avvalgi oyga nisbatan narx indekslari hisoblanishidan tashqari, o'tgan yilning dekabr oyiga, o'tgan yilning mos oyiga hamda yil boshidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan narx indekslari hisoblanadi.

36. O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq davrli individual narx indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$LTR2_{i(t)} = \prod_{m=1}^t STR_{i(m)}$$

bunda

$LTR2_{i(t)}$ – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan tovarning (i) joriy (t)oydagi uzoq davrli narx indeksi;

m – oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksidan tashqari quyidagi uzoq muddatli ko'rsatkichlar ham shakllantirildi:

O'tgan yilning tegishli oyiga nisbatan joriy yilning hisobot oyidagi narxlar indekslari $LTR 3$: (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 3_{(t)} = \frac{LTR 1_{t(y)}}{LTR 1_{t(y-1)}},$$

bunda

$LTR 3_{(t)}$ hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun o'tgan yilning mos oyiga (t) nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksi ($y-1$);

$LTR 1_{t(y)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

$LTR 1_{t(y-1)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan o'tgan yilning ($y-1$) mos oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi.

Davrning narxlar indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan $LTR 4$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 4_{(t)} = \frac{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y)}}{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y-1)}},$$

bunda

$LTR 4_{(t)}$ o'tgan yilning mos davriga $(y-1)$ nisbatan hisobot yilining (y) yanvar oyidan joriy oyga (t) qadar uzoq muddatli narxlar indeksi;
 n oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

Bundan tashqari, narx indekslari har chorakda hisobot yilining joriy choragi uchun o'tgan chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan ham hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi formulalar qo'llaniladi:

Hisobot yili joriy choragining narxlar indeksi o'tgan chorakka nisbatan $LTR 5$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 5_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q-1)}}$$

bunda

$LTR 5_{(q)}$ joriy chorak narx indeksi (q) o'tgan chorakka nisbatan $(q-1)$;
 m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

Hisobot yili joriy choragining o'tgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar indeksi $LTR 6$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 6_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y-1)}}$$

bunda

$LTR 6_{(q)}$ o'tgan yilning mos choragiga nisbatan $(y-1)$ hisobot yili (y) joriy chorak narx indeksi (q) ;
 m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

Bundan tashqari, statistik maqsadlarda quyidagi qo'shimcha diskret narxlar indeksi shakllantiriladi:

hisobot yili joriy choragining bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 7$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 7_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(z)}}$$

bunda

- $LTR7_{(q)}$ bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);
- $LTR1_{(y)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan hisobot yilning uzoq muddatli indeksi (y);
- $LTR1_{(z)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan bazaviy yilining uzoq muddatli indeksi (z);
- m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chorakning birinchi oyi, 2- ikkinchi oyi va 3- uchinchi oyi uchun).
- n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy choragining hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 8$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR8_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR1_{m(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)}}$$

bunda

- $LTR8_{(q)}$ joriy yilning o'rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);
- m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chorakning birinchi oyi, 2- ikkinchi oyi va 3- uchinchi oyi uchun).
- n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining (bazaviy) yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 9$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR9_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(z)}}$$

bunda

- $LTR9_{(t)}$ bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy oyidagi narx indeksi (t);
- n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi *LTR* 10 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR10_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)}}$$

bunda

$LTR10_{(t)}$ hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);

n oyning tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr).

Hisobot yilining joriy choragi va joriy oyning hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narxlar indeksi (*LTR* 8 va *LTR* 10) hisobot yili oxirida dekabr oyi uchun narxlar indeksi hisob-kitoblari tugaganidan so‘ng shakllantiriladi. Indeksni shakllantirish har bir chorak (*LTR* 8) va oy uchun (*LTR* 10) retrospektiv holda amalga oshiriladi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

37. Tovarlarining eksport va import narxlari indeksini shakllantirishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar rezidentlari o‘rtasidagi ayirboshlanuvchi tovarlarning narxlari o‘zgarishining darajasini baholashdan iborat.

38. Respublika bo‘yicha tovarlarning eksport va import narxlari yig‘ma indeksi hisob-kitoblari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

39. Tovarlarining eksport va import narxlari o‘zgarishi ma’lumotlari uning Respublika iqtisodiyotiga bo‘lgan ta’sirini statistik tahlil qilish, shuningdek, milliy hisoblar tizimining asosiy agregatlari kattaliklarini aniqlashda deflyator sifatida ham ishlatilishi mumkin.

40. Ma’lumotlar nashrlar va rasmiy havolalarda verguldan so‘ng bitta o‘nlik belgi bilan joylashtiriladi.

Foydalaniladigan manbalar ro‘yxati:

1. Tovarlarini tavsiflash va kodlashning uyg‘unlashtirilgan yangi tizimi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi” (O‘z.R TIF TN) 2017 yil;

2. Eksport va import narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: nazariya va amaliyot (XMT va boshqa tashkilotlar, 2009);

3. “Choraklik milliy hisoblar bo‘yicha qo‘llanma” 2017 yildagi nashr// Xalqaro valyuta jamg‘armasi – 2018 y.

“Eksport va import narxlari indekslarini
hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ga
1-ilova

1- shartli misol

**Vakil-tovar bo‘yicha o‘tgan oyga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	Narx, so‘mda		O‘tgan oyga nisbatan narx indeksi, % da	
	(y-1) o‘tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	(y-1) o‘tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun
A	B	V	G	D
(y-2) yil dekabr	5200	x	x	x
yanvar	5300	6000	101,92 (5300/5200*100%)	100,00 (6000/6000*100%)
fevral	5300	6200	100,00 (5300/5300*100%)	103,37 (6200/6000*100%)
mart	5500	6200	103,77 (5500/5300*100%)	100,00 (6200/6200*100%)
aprel	5500	6500	100,00 (5500/5500*100%)	104,84 (6500/6200*100%)
may	5600	6500	101,82 (5600/5500*100%)	100,00 (6500/6500*100%)
iyun	5600	6600	100,00 (5600/5600*100%)	101,54 (6600/6500*100%)
iyul	5700	6600	101,79 (5700/5600*100%)	100,00 (6600/6600*100%)
avgust	5700	6700	100,00 (5700/5700*100%)	101,52 (6700/6600*100%)
sentabr	5800	6700	101,75 (5800/5700*100%)	100,00 (6700/6700*100%)
oktabr	5800	6800	100,00 (5800/5800*100%)	101,49 (6800/6700*100%)
noyabr	6000	6800	103,45 (6000/5800*100%)	100,00 (6800/6800*100%)
dekabr	6000	7000	100,00 (6000/6000*100%)	102,94 (7000/6800*100%)

**Vakil-tovar bo'yicha o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	O'tgan oyga nisbatan narx indeksi, % da		O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da	
	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun
A	B	V	G	D
yanvar	101,92	100,00	101,92	100,00
fevral	100,00	103,37	101,92 (101,92*100,00/100%)	103,33 (100,00*103,33/100%)
mart	103,77	100,00	105,76 (101,92*103,77/100%)	103,33 (103,33*100,00/100%)
aprel	100,00	104,84	105,76 (105,76*100,0/100%)	108,33 (103,33*104,84/100%)
may	101,82	100,00	107,69 (105,76*101,82/100%)	108,33 (108,33*100,00/100%)
iyun	100,00	101,54	107,69 (107,69*100,00/100%)	110,00 (108,33*101,54/100%)
iyul	101,79	100,00	109,61 (107,69*101,79/100%)	110,00 (110,00*100,00/100%)
avgust	100,00	101,52	109,61 (109,61*100,00/100%)	111,67 (110,00*101,52/100%)
sentabr	101,75	100,00	111,53 (109,61*101,75/100%)	111,67 (111,67*100,00/100%)
oktabr	100,00	101,49	111,53 (111,53*100,00/100%)	113,34 (111,67*101,49/100%)
noyabr	103,45	100,00	115,38 (111,53*103,45/100%)	113,34 (113,34*100,00/100%)
dekabr	100,00	102,94	115,38 (115,38*100,00/100%)	116,67 (113,34*102,94/100%)

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 1 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

**Vakil-tovar bo'yicha bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	O'tgan oyga nisbatan narx indeksi, % da		(y-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da	
	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun
A	B	V	G	D
(y-2) bazaviy yil dekabr	100,00	x	100,00	x
yanvar	101,92	100,00	101,92 (100,00*101,92/100%)	115,38 (115,38*100,00/100%)
fevral	100,00	103,37	101,92 (101,92*100,00/100%)	119,22 (115,38*103,33/100%)
mart	103,77	100,00	105,76 (101,92*103,77/100%)	119,22 (119,22*100,00/100%)
aprel	100,00	104,84	105,76 (105,76*100,0/100%)	124,99 (119,22*104,84/100%)
may	101,82	100,00	107,69 (105,76*101,82/100%)	124,99 (124,99*100,00/100%)
iyun	100,00	101,54	107,69	126,92 (124,99*101,54/100%)
iyul	101,79	100,00	109,61 (107,69*101,79/100%)	126,92 (126,92*100,00/100%)
avgust	100,00	101,52	109,61	128,85 (126,92*101,52/100%)
sentabr	101,75	100,00	111,53 (109,61*101,75/100%)	128,85 (128,85*100,00/100%)
oktabr	100,00	101,49	111,53	130,77 (128,85*101,49/100%)
noyabr	103,45	100,00	115,38 (111,53*103,45/100%)	130,77 (130,77*100,00/100%)
dekabr	100,00	102,94	115,38 (115,38*100,00/100%)	134,61 (130,77*102,94/100%)

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 1 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

**Vakil-tovar bo'yicha joriy vil oylarining o'tgan vil mos oylariga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	(y-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		(y) Joriy yil oyining (y-1) o'tgan yilning mos oyga nisbatan narx indeksi, % da
	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	
A	B	V	G
yanvar	101,92	115,38	113,21 (115,38/101,92*100%)
fevral	101,92	119,22	116,97 (119,22/101,92*100%)
mart	105,76	119,22	112,73 (119,22/105,76*100%)
aprel	105,76	124,99	118,18 (124,99/105,76*100%)
may	107,69	124,99	116,06 (124,99/107,69*100%)
iyun	107,69	126,92	117,86 (126,92/107,69*100%)
iyul	109,61	126,92	115,79 (126,92/109,61*100%)
avgust	109,61	128,85	117,55 (128,85/109,61*100%)
sentabr	111,53	130,77	115,53 (128,85/111,53*100%)
oktabr	111,53	130,77	117,25 (130,77/111,53*100%)
noyabr	115,38	130,77	113,34 (130,77/115,38*100%)
dekabr	115,38	134,61	116,67 (134,61/115,38*100%)

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

Vakil-tovar bo'yicha joriy yil boshidan boshlangan davrning o'tgan yil mos davriga nisbatan narx indekslarining shartli hisoblanishi

	(y-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		Yanvardan boshlab narx indekslari yig'indisi		(y) Joriy yil boshidan boshlangan davrning (y-1) o'tgan yilning mos davriga nisbatan narx indeksi, % da
	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	
A	B	V	G	D	Ye=D/G
yanvar	101,92	115,38	101,92	115,38	113,21
fevral	101,92	119,22	203,84 (101,92+101,92)	234,60 (115,38+119,22)	115,09
mart	105,76	119,22	309,60 (203,84+105,76)	353,82 (234,60+119,22)	114,28
aprel	105,76	124,99	415,36 (309,6+105,76)	478,81 (353,82+124,99)	115,28
may	107,69	124,99	523,05 (415,36+107,69)	603,80 (478,81+124,99)	115,44
iyun	107,69	126,92	630,74 (523,05+107,69)	730,72 (603,80+126,92)	115,85
iyul	109,61	126,92	740,35 (630,74+109,61)	857,64 (730,72+126,92)	115,84
avgust	109,61	128,85	849,96 (740,35+109,61)	986,49 (857,64+128,85)	116,06
sentabr	111,53	130,77	961,49 (849,96+111,53)	1115,34 (986,49+128,85)	116,00
oktabr	111,53	130,77	1073,02 (961,49+111,53)	1246,11 (1115,34+130,77)	116,13
noyabr	115,38	130,77	1188,40 (1073,02+115,38)	1376,88 (1246,11+130,77)	115,86
dekabr	115,38	134,61	1303,78 (1188,40+115,38)	1511,49 (1376,88+134,61)	115,93

– Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

Vakil-tovar bo'yicha joriy yil choragi o'tgan chorakka nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi

	(y-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		Chorakning 1-dan 3-oyigacha narx indekslari yig'indisi		(y) Joriy yil choragi o'tgan chorakka nisbatan narx indeksi, % da
	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	
A	B	V	G	D	Ye
yanvar	101,92	115,38			
fevral	101,92	119,22			
mart	105,76	119,22		353,82 (115,38+119,22+119,22)	103,37 (353,82/342,29*100%)
aprel	105,76	124,99			
may	107,69	124,99			
iyun	107,69	126,92		376,90 (124,99+124,99+126,92)	106,52 (376,9/353,82*100%)
iyul	109,61	126,92			
avgust	109,61	128,85			
sentabr	111,53	130,77		384,62 (126,92+128,85+128,85)	102,05 (384,62/376,9*100%)
oktabr	111,53	130,77			
noyabr	115,38	130,77			
dekabr	115,38	134,61	342,29 (111,53+115,38+115,38)	396,15 (130,77+130,77+134,61)	103,00 (396,15/384,62*100%)

– Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

Vakil-tovar bo'yicha joriy yil choragi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi

	(y-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		Chorakning 1-dan 3-oyigacha narx indekslari yig'indisi		(y) Joriy yil choragi (y-1) o'tgan yil mos choragiga nisbatan narx indeksi, % da
	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	(y-1) o'tgan yil uchun	(y) joriy yil uchun	
A	B	V	G	D	Ye=D/G
yanvar	101,92	115,38			
fevral	101,92	119,22			
mart	105,76	119,22	309,60 (101,92+101,92+105,76)	353,82 (115,38+119,22+119,22)	114,28
aprel	105,76	124,99			
may	107,69	124,99			
iyun	107,69	126,92	321,14 (105,76+107,69+107,69)	376,90 (124,99+124,99+129,92)	117,36
iyul	109,61	126,92			
avgust	109,61	128,85			
sentabr	111,53	130,77	330,75 (109,61+109,61+111,53)	384,62 (126,92+128,85+128,85)	116,29
oktabr	111,53	130,77			
noyabr	115,38	130,77			
dekabr	115,38	134,61	342,29 (111,53+115,38+115,38)	396,15 (130,77+130,77+134,61)	115,74

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

ПРИЛОЖЕНИЕ
к постановлению Государственного комитета
Республики Узбекистан по статистике
от « 23» ноября 2021 г. №47

**Методические положения
по расчету индексов экспортных и импортных цен**

Методические положения по расчету индексов экспортных и импортных цен (далее – Методические положения) разработаны в целях дальнейшего усовершенствования практики расчета индексов экспортных и импортных цен на товары (ИЭИЦ) по Республике Узбекистан.

При разработке данных положений использованы нормативно-правовые акты Республики Узбекистан, а также рекомендации «Руководства по индексу цен производителей: теории и практики» (МОТ и других организаций), адаптированные к особенностям осуществления промышленной деятельности в нашей стране.

Эти Методические положения прежде всего предназначены для использования Госкомстатом в целях организации и осуществления работ по формированию индексов цен внешней торговли.

Глава 1. Общие положения

